

S. T. SA`DIYEV SH.U.BOBONAZAROV

**Tasviriy san`at fanidan amaliy
mashg`ulotlar va mustaqil ishlarni tashkil
etish bo`yicha**

O`QUV USLUBIY QO`LLANMA



NAVOIY 2016 yil

Anotatsiya

Hurmatli talaba qo`lingizdagi qo`llanmada rasm chizishning ayrim qonun-qoidalari, sirlari ko`rsatilgan. Har bir rasm chizishga qiziqqan inson yoshligidan, rasmlar jilosi, undagi ranglarning mavji uni o`ziga jalb qiladi. Eng asosiysi qiyinchiliklardan qo`rqmaslik kerak. Atrofimizni o`rab turgan olamni, sinchkovlik bilan kuzataylik. Shunda siz olamni naqadar go`zal ekanligini, undagi ranglar jilosini his qilasiz. Undagi har bir buyum, tabiat, undagi jonivorlar sizni o`ziga maftun qiladi. Qo`llanmada ko`rsatilgan rasm chizish tartibiga amal qilib, bilimingizni oshiring. Albatta siz bu ma`lumotlar bilan chegaralanib qolmasdan, uni yanada rivojlantirishni, mustaqil ishlab uni rivojlantirishingiz kerak bo`ladi.

Ustozlaringiz ko`rsatmalariga amal qilib, yanada ko`proq bilim egallashga harakat qilasiz degan umiddamiz. Ushbu qo`llanmadan yoki boshqa kitoblardan foydalanib, yanada yaxshiroq rasm chizishga harakat qilasiz degan umiddamiz.

Tuzuvchilar: Sh.U.Bobonazarov, S.T.Sa`diyev
Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi
kafedra o`qituvchilari

Taqrizchilar: S.A.Shovdirov
– NavDPI “Tasviriy san`at va muhandislik
grafikasi” kafedrasida, katta o`qituvchi

R.Cho`llyev
Navoiy pedagogika kolleji
tasviriy san`at fani o`qituvchisi

Kirish

San'atning eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biri — tasviriy san'atdir.

San'atkor o'z asarlarida voqea va hodisalar, turli holatlarning ma'lum bir ko'rinishini ifodalab, tasvir orqali ichki mohiyatni ochib, kishilarning ma'naviy qiyofasi, psixologik (ruhiy) holati va fikrlarini tasvirlaydi.

Tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu hislar uyg'otadigan, ma'naviy olamini boyitadigan san'at turlaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishi va kamolga yetishiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir.

Pedagogika kollejlarda ta'lim oluvchi o'quvchilarning tasviriy san'atdan maxsus bilim va malakalarga ega bo'lishi, ularning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini, badiiy didini, rang sezishi va tasavvurini rivojlantiradi, buyuk rassomlar yaratgan asarlar go'zalliklarini ko'ra bilishga, ularni idrok etishga olib keladi.

Tasviriy san'at fani pedagogika kollejlarda maxsus o'quv fani sifatida shakllanib, tasviriy san'atning amaliy asoslaridan keng, atroflicha ma'lumotlarni berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Tasviriy san'at fani bo'yicha amaliy ishlar har bir mavzu yakunida tavsiya etiladi. O'qituvchi o'quvchilar bilim saviyasi va o'qitish shart – sharoitlaridan kelib chiqib, bu ishlarni tashkil etadi. Amaliy ishlarni tashkil etishda o'quvchilarga oldindan mavzular tavsiya etiladi va reja berish maqsadga muvofiq. Har bir o'tkazilgan amaliy ish albatta tekshirilishi va baholanishi lozim. Amaliy ishlarni tashkil etish o'quvchilarning mustaqil ishlarining davomi bo'lishi kerak.

Ushbu uslubiy tavsiyada berilgan amaliy topshiriqlarni bajarib borilsa, o'quvchilarning ko'nikma va malakalari oshadi.

Amaliy ish


I. HAR XIL ODDIY UY BUYUM JIHOZLARINI BIR NECHA KO`RINISHDA TASVIRLASH.

Narsaning fazoviy tekislikdagi uch tomonlama tasviri, eng avvalo perspektivaning va konstruktiv qurilishin to`g`ri hisobga olgan holda amalga oshiriladi.


Turli hajmga ega bo`lgan narsalar tekis yoki notekis sathga ega bo`ladi.

Buyumlarni tasvirlashda albatta yordamchi chiziqlardan foydalaniladi. Yordamchi chiziqlar qalamni bosmasdan yengil chiziqlar bilan chiziladi. Buyumlarning hajmi, shakliga qarab ularning ko`rinmas qismlari ham yordamchi chiziqlar orqali chizib olinadi.


Naturani turg`ri chizilganligiga ishonch hosil qilingach, yordamchi chiziqlar o`chirib tashlanadi.




1- rasm. *Ko`zaning konstruktiv joylashuvi.*




2- rasm. *Ko'zaning yon bosh joylashuvi.*



3- rasm. *Choynakning konstruktiv joylashuvi.*



4- rasm. *Chelakni bir necha ko'rinishlarini tasvirlash*



5- rasm. *Chelakni bir necha ko`rinishlarini tasvirlash.*


II. UY ANJOMLARIDAN NATYURMORT TUZISH.

Naturani haqqoniy tasvirlash – bu narsalarni konstruktiv va perspektiva qonunlari asosida qurish, ularni fazoviy joylashuvi, materialini, hajm va nisbatlarini ifodalash, tasvirlanayotgan narsalarni xarakterli xususiyatlari va nafis go`zalligini aniqlashdir.

Turli materiallardan tashkil topgan narsalar o`ziga xos yorug`-soya xususiyatlariga ega. Buyumlardagi yorug`ligi, yarimsoya, soya, refleks kabilar nafislik va ravonlik bilan o`tib boradi. Buyumlarni aniq shaklini faqatgina «blik» - shu'la va «refleks»lar aniqlab beradi.

Natyurmortning yana bir muhim shartlaridan biri, qalamtasvir yoki rangtasvirda jismlarning sathi ashyo xususiyatini haqqoniy tasvirlashda qo`yilmaga mos ravishda ranglar va tus munosabatlarini bera olishdir.

“Choynak payola va spollagan”dan iborat natyurmort ishlash jarayoni bilan tanishib chiqamiz. Natyurmortni qog`ozga to`g`ri komponovka qilishni o`rganishimiz kerak bo`ladi. Konstruktiv tahlil jarayonida, jismlarni geometric shaklini chizib chiqishimiz kerak. Bunda to`g`ri chiziqlardan foydalangan holda buni bajaramiz. 6-rasmda manashu jarayonni kuzatishimiz mumkin.



6- rasm. *Naturani to`g`ri chiziqli geometrik shaklini topish.*



7- rasm. *Naturani chiziqli konstruksiyasini topish hamda rangga tayyorlash.*



8- rasm. *Naturani etablarda ranglarini aniqlab uni ranglash.*



9- rasm. *Ranglarni to`qlashtirish va uni tugatish.*

III- Qush, hayvonlarni kuzatish asosida rasmini chizish.

Qush va hayvonlar rasmini tasvirlash borasida har bir o`quvchining kerakli bilim va malakaga ega bo`lishi talab etiladi.

Qush va hayvonlar rasmini chizishni o`rganishda avvalo, tulumiga qarab turli tomondan tasvirlashni o`rganamiz. Buning uchun ularni sinchiklab o`rganamiz, xarakterli joylariga alohida e'tibor qaratamiz. Keyin tulumga qarab

tez chizishni mashq qilish orqali jonli hayvonot va qushlarni rasmini chizishga o`tiladi.


Biror qushning rasmini ishlashda uning boshi, gavdasi, ularning nisbiyligi, dumining uzunligi, tumshug`ining holati aniqlab olinadi. Rasmni qog`ozga nisbatan to`g`ri joylashtirish, yordamchi chiziqlardan unumli foydalanish, boshi, tumshug`i, gavdasi, panjalarini to`g`ri tasvirlash (7-rasm) rasmni haqqoniy chiqishiga yordam beradi.

Qush va hayonlar rasmini chizuvchi rassomlarni «animalist» rassomlar deb ataymiz.

Animalist – lotincha «animal» so`zidan olingan bo`lib, «hayvonot dunyosi» ma'nosini anglatadi.



10-rasm. **Hayvon va qushlarning tasviri.**



11-rasm. **Hayvon va qushlarning ranglarda tasvirlash.**

IV- Xonaning biror bir burchak ko`rinishini qoidalar asosida tasvirlash

Inter'er – frantsuzcha so`z bo`lib, binoning ichki ko`rinishi ma'nosini anglatadi. Xonaning ichki ko`rinishini tasvirlash uchun qog`ozning o`rtasidan

to'g'ri to'rtburchak chizib olamiz. Chizilgan to'g'ri to'rtburchakning o'rtasida nuqta hosil qilamiz. Hosil qilingan nuqta asosida yordamchi nur chiziqlarini o'tkazib, xonada joylashgan jihozlar, uning devorlari, ship, pol, eshik va derazalarni hosil qilamiz.

Uyning ichki ko'rinishini chizish uchun R nuqtani topib olamiz. Buning uchun qog'oz chetidan 1 sm joy qoldirib chizib chiqamiz. Qog'ozni markazini topib, 2-3 sm balandroqdan nuqta qo'yamiz va R nuqtani belgilaymiz. To'rtburchakni har biridan R nuqtaga chiziq o'tkazamiz. R nuqta bilan burchakni tutashtiramiz va chiziq o'rtasiga nuqta qo'yib, gorizontal chiziq o'tkazamiz. Shu asosda uyning ichini chizib chiqamiz. Uyni tomi 3 ta devor shipi (patalogi) hosil bo'ldi. Chizayotgan chiziqlarimizni bosmasdan yengil chiziqlarda chizishga harakat qilamiz. Endigi vazifa uyni eshik va derazalarini chizib olamiz, eshik chizish uchun poldan vertikal chiziq tortib ma'lum balandlikka yetgach to'xtatamiz, eshik enini aniqlab, ikkinchi chiziqni chizamiz.

Ikki tarafdagi devor, ship, poldagi har bir chiziq R nuqtaga borib tutashishi kerak bo'ladi, ya'ni perspektiva qonuniyatiga amal qiriladi.

Deraza ham pol bilan ship o'rtasiga joylashtiriladi, derazalar bitta yoki ikkita bo'lishi ham mumkin. Derazalarga pardalarni tasvirlacha ham bo'ladi. Yordamchi chiziqlar ko'payib ketmasligi uchun ularni o'chirib chiqamiz.

Uyni ichida qanday jihozlarni tasvirlash mumkinligini o'ylab ko'ramiz. Masalan, divan, kreslo, stol, stul, televizor, qandil va boshqa narsalar.

Uyni ichidagi jihozlarni chizayotganda polni ustida joylashgan bo'lishiga e'tibor qaratish lozim. Bundan tashqari vertikal chiziqlardan tashqari barcha chiziqlar R nuqtaga yo'naltirilishi lozim.

Chizilayotgan jihozlar uyga mos bo'lishi (mutanosibli) e'tibor berish kerak. Devorga rasmlar ilingan bo'lishi, deraza oldida tuvakda gullar bo'lishi ham mumkin. Qalamda barcha ishlarni bajarib bo'lingach, yordamchi chiziqlar va ko'rinmas chiziqlar o'chirib tashlanadi.

Dekorativ amaliy san'atning badiiy bezash ishlaridagi roli.

Xona intererini badiiy bezashda dekorativ amaliy san'atning yog'och va ganch o'ymakorligi, naqqoshlik, dekorativ haykaltaroshlik, mozaika, vitraj, chekanka va boshqa turlaridan foydalaniladi.

Badiiy bezash ishlarida dekorativ amaliy san'at namunasi xona intereri xarakteriga mos bo'lishi kerak:

Sinf xonasining vazifasini, unda shugullanadigan o'quvchilarning yosh xususiyatlari va idrok etish qobiliyatlarini hisobga olib yondoshish lozim (masalan, kichik xona yoshidagi o'quvchilar shugullanadigan rekreatsiyalarda tabiatga, urta yoshdagi o'quvchilar shugullanadigan rekreatsiyalarda uziga xos, yuqori sinf o'quvchilari shugullanadigan xonalarda kosmosga, sportga, mehnatga bag'ishlangan dekorativ pannolar urnatilishi ularga ma'lum darajada ta'limiy va tarbiyaviy ta'sir kursatadi);


Xonadagi badiiy bezash ishlarida kullanayotgan dekorativ amaliy san'at elementlari mavsumiy, ya'ni vaqti-vakti bilan almashtirib turiladigan elementlar bilan mos bulishi zarur;

Xonadagi badiiy bezash ishlarida kullanayotgan dekorativ amaliy san'at elementlari tasviriy san'atning boshqa turlari bilan uzviy boglanishi kerak (rang tasvir, haykaltaroshlik, grafika va arxitektura xona intererini badiiy bezashda bir-biriga garmonik boglanmasa, xal kiluvchi omil bula olmaydi).


Yuqorida ta'kidlanganidek, intererni badiiy bezashda bevosita uning vazifasidan kelib chikkan xolda ish kurish lozim.

Badiiy bezashda shuningdek keramikadan ham keng foydalaniladi. Dekorativ laganlar, gultuvaklar, vazalar va xohazolar eng avvalo o'quvchilarning estetik tarbiyasini takomillashtirishda katta yordam beradi. Shuningdek intererdagi turli mavzudagi stendlar, ko'rgazmali qurollar, ko'rgazmalar, bayram va sahna bezaklari o'zi bajaradigan vazifasiga muvofiq amalga oshiriladi. Ya'ni bajarilayotgan ishlar kimga bag'ishlanganligi, uning yoshi, ongi, bilim darajasi, kasbi-kori va boshqa xususiyatlari hisobga olinishi


zarur. Shundan kelib chiqib bezak ishlarining shakli, o`lchami, mazmuni, rangi va hokazolar aniqlanadi.




12-rasm. *Xonaning ichki jihozlarisiz ko`rinishi (1-bosqich).*



13-rasm. *Xonaning ichki jihozlar bilan ko`rinishi (2-bosqich).*



14-rasm. *Mehmon xonaning ichki jihozlar bilan ko`rinishi.*




15-rasm. *Dars xonaning ichki jihozlar bilan ko`rinishi.*

V- Odam bosh qismini tasvirlash (portret janri)

Odam bosh qismini tasvirlash avvalo ko`z, lab, burun qisimlarni chizishdan boshlanadi. Bular bosqichlarda amalga oshiriladi (16-rasm).

Quyida ko'z shakli qurilishining asosiy qonuniyatlarini tahlil qilamiz, avval aytib o'tganimizdek, ko'z sharsimon shaklga ega bo'ladi va ko'z chuqurligidan to'rtidan bir qismi chiqib turadi. Tasviriy san'atda rassom uchun oqsil parda bilan qoplangan ko'z soqqasining tashqi qismi va rangdor parda bilan qoplangan ko'z qorachig'ining bo'rtib chiqqan qismi, ko'z gavhari muhimdir, ko'z olmasini qoplab turgan yuqori qovoqning bukilishi ko'z qorachig'ining turtib chiqqanligiga bog'liq, ya'ni yuqori qovoqning eng bukilgan joyi qorachiq o'rnashgan joy bo'ladi: rasmda u nigoh yo'nalishini ko'rsatadi. Ko'z qorachig'i va rangdor pardalar 16-rasmda turli nuqtalardan aniq ko'rsatilgan.




16-rasm. ***Gipsdan yasalgan ko`z namunasining birinchi bosqichi.***

Lekin ko'z shakli plastik xarakteristikasini yoritisho`quvchi uchun ancha qiyin. Ma'lum bo'lishicha, ko'zning katta o'lchamlari, qovoq qalinligining

Keng yuzalari ko'z soqqasining katta hajmini ko'rish va uni ifodalashga xalaqit beiadi. Yuqorigi va pastild qovoqlarga tus berishda rasm chizuvchilar ularning kengligi va pastki qovoq yuzasining qalinligi farqini ilg'ab ololmaydilar. Natijada ko'z shakli ifodasiz chiqadi.

Rasmni namunaning umumiy shaklini (qoshlar va ko'z chuqurchasining turtib chiqqan qismlarini) tasvirlashdan boshlang. Shundan so'ng ko'z soqqasining turtib chiqqan qismini belgilab, keyingina uni qovoqlar bilan yoping.16-rasm.




17-rasm. ***Gipsdan yasalgan ko`z namunasi***ning ikkinchi bosqichi.

Sizning namunangiz quti devoriga tegib turadi, deb tasavvur qiling. Ustki yuzasi quti qopqog'ining butun yuzasini, pastki yuza esa yarim yuzasini egallaydi. Binobarin, qosh ustki yoylari pastki chetidan asosigacha biroz og'ma holda qo'yilgan. Kuzatilgan tasavvurni perspektiva bo'yicha aniqlab olish kerak.

Shundan so'ng qosh ustki yoylari va qansharning turtib chiquvchi qismlarining o'lchamlarini, shuningdek, ko'z soqqasining ichkarida joylashgan qismini, ko'z kesmalari-ning chizig'ini belgilab olish kerak. Bu ko'z yoshi qopchig'i va ko'z burchagini to'g'ri belgilashga yordam beradi. Yordamchi chiziqlarga e'tibor bermaydiganlar, garchi qovoqlar shaklini to'g'ri chizsalar-da, qovoqlarni o'z joyiga qo'ya olmaydilar, ya'ni ular perspektivada qo'pol xatoga yo'l qo'yadilar. Yordamchi chiziqlar yordamida tasvirni ko'rayotganingizda ko'z soqqalarini va qorachig'ini ko'z qorachig'i o'qining yo'nalishini diqqat bilan kuzating. O`quvchilar, odatda, to'g'ri doira belgilab oladilar va uning ichiga ko'z qorachig'ining "yurakcha"sini chizadilar. Qorachiq va qovoqlar og'ma o'q bo'ylab joylashadi. Qorachiqning yuqori cheti esa oldinga turtib chiqadi, va


pastki cheti ichiga kirib ketadi. Buni doimo nazarda tutish kerak (ayniqsa, tirik naturadan chizayotganda). 18-rasmda ishning so'nggi bosqichi ko'rsatilgan.

Ko'z qurilishi xususiyatlarini yaxshi eslab qolish uchun uni turli tomondan chizib ko'rish lozim.



18-rasm. *Gipsdan yasalgan ko'z namunasining uchinchi bosqichi.*


Lablarning shakli va ularning joylashishi tishlarning shakli, katta-kichikligiga ko'p jihatdan bog'liq. Agar tishlar bir-biriga bir tekis tegib tursa, lablar ham shunday joylashadi, yuqori va pastki lablar kengligi esa deyarli to'g'ri bo'ladi. Agar pastki jag' tishlari oldinga turtib chiqqan bo'lsa, pastki lab ham oldinga chiqibroq turadi, lablar kengligi esa quyidagicha o'zgaradi: yuqori lab pastroq (ingichkaroq), pastki lab esa shishgan va qalin bo'ladi. Agar pastki jag' tishlari yuqorigi jag' tishlari tagiga kirib ketsa, u holda yuqorgi lab oldinga turtib chiqadi, pastki lab esa orqaga tortiladi. 85-a,b,c rasmda (m.gerasimov bo'yicha) tishlarning asosiy turlari va lablarning bir-biriga tegish shakli ko'rsatilgan.



19-rasm. (a,b,c) *Tishlarning joylashuvi*


Tishlarning bir tekis tishlamasi va lablarning tegishli shakli ko'pchilik kishilarga xosdir. Buni dovud lablarining gips namunasida diqqat bilan tahlil qilish mumkin. 20, 21-rasmlar.

Lab shakllariga tus berishda yorug'likdan yarim soyaga va yarim soyadan soyaga sekin-asta o'tishga harakat qiling. Shakl yuzasini buzib yuboradigan qo'pol chizgilar qilmang. Chiziq shaki bo'ylab tushishi kerak. Shakl yuzasi o'ngga burilsa chizgi (shtrix) ham o'ngga buriladi, yuza chapga ketsa, chizgi ham chapga buriladi. Chunki tomoshabin rasmdagi chizgilar yo'nalishini kuzatadi, ular unga shakl plastikasini "o'qish"ga, uqib olishga yordam beradi.




20-rasm. *Burun-lab ko`rinishi 1-bosqichi.*

Lablarni chizayotganingizda lab burchaklari oldidagi burun-lab shakli plastikasini diqqat bilan kuzatib boring. Lablarning yuqorigi va pastki yuzalari burchaklarga yaqinlashishiga qarab ichkariga tortiladi, yonoqlarning turtib chiqqan qismi esa (burun-lab taxlamasi) xuddi ularga yopishib turgandek bo'ladi. Ko'pchilik o'quvchilar, aksincha, lab strelkalarini oldinga chiqarib chizishadi, natijada ular naqshga yoyilib qoladi, shuning uchun yuzning butun pastki qism plastikasi buziladi.




21-rasm. ***Burun-lab ko`rinishi.***

Quloq rasmini chizayotganda yoritilishiga, shaklning alohida joylarining tus berilish nisbatlariga e'tibor berish lozim.



22-rasm. ***Quloq ko`rinishi 1-bosqichi.***

Ko'pchilik, odatda, quloq suprasi ichidagi shakl harakatlarini namoyon etmaydi, gajama va qarshi gajamaning chiziqli rasmiga ko'proq ahamiyat beradi, tus berish vazifasi esa hal qilinmay qoladi. Natijada rasm uzuq-yuluq bo'lib qoladi.




23-rasm. *Quloq ko`rinishi.*

Bosh suyagi bo'laklari

Biz ishni yana kalla suyaklarini tahlil qilishdan boshlasak, tirik boshni tasvirlashda ularni bilish juda muhim. Kalla suyaklarini tahlil qilishda chakka suyagi, jag' suyagi shakllarining xarakteriga, jag' suyagi o'simtasiga, pastki jag' va ensa (gardan)larga alohida e'tibor berish kerak. Shuningdek, katta ensa, uning chuqurchasi va ellipsoid shaklidagi ikkita bo'rtib chiqqan qismiga (ular yordamida gardan suyagi atlant, bo'yin suyagining yuqori umurtqasi bilan tutashadi) e'tibor qaratish kerak. 24-25-rasmlar.



24-rasm. *Inson bosh suyagining olddan ko`rinishi.*



25-rasm. *Inson bosh suyagining yondan ko`rinishi.*

Portretni 4 bosqichda amalga oshirish texnikasi bilan tanishamiz.

1-bosqich. Boshning umumiy shakli qog`oz yuzasiga chiziladi, boshning o`rtasidan yordamchi chiziq o`tkaziladi, burun, qosh, ko`zlar, lab, quloq, engak o`rni belgilab olinadi.

2-bosqich. Bu bosqichda bosh asosiy shakllarining umumiy shakli tuzilishi belgilanadi. Avvalgi bosqichda yuz qismlarining o`rni belgilab olingan bo`lsa, endi ularning shakli hosil qilinadi.

3-bosqich. Bu bosqichga kelib sochni chizishga ham alohida ahamiyat beriladi. Sochni chizishda uning yorug` qism odam yuzining soyasiga nisbatan to`q qora bo`ladi. Shtrixni sochning yo`nalishiga qarab yuritish lozim.


Bu bosqichda ko`zni chizishga ham ahamiyat berish lozim. Ko`z odam yuzining «oynasi». Ko`z orqali kishining ichki dunyosi va yot xususiyatlarini ifodalash mumkin.

4-bosqich. Bu bosqichga yuzdagi har bir a'zog alohida e'tibor berishga harakat qilinadi.

Endi xususiyydan umumiyga qarab tasvirlanadi, ya'ni bosh tasvirining umumiy ko`rinishi umumlashtirilib yakunlanadi.

Insonni ichki ruhiy olami bilan bog`langan holda aniq bir obraz yaratish portret san'ati deb yuritiladi. Portret yaratish o`ziga xos murakkab jarayon bo`lib, insonning anatomik tuzilishidan tortib, ichki ruhiy, ma'naviy holati, tashqi ko`rinishidagi barcha jihatlarni aks ettirish lozim bo`ladi.

Portret chizishning 1-bosqichi ahamiyatli kasb etadi. Portretning mazmunli chiqishi shu bosqichning to`g`ri bajarilishiga bog`liq. Chunki bu bosqich rasmning asosi hisoblanadi.




26-rasm. ***Inson boshning olddan ko`rinish o`lchamlari.***

O`quvchi bosh rasmini chizish jarayonida juft va simmetrik shakllarning to'g'ri taqsimlanganligiga alohida e'tibor berishi kerak. Buning uchun quyidagilarni tavsiya qilish mumkin: birinchidan - juft va simmetrik shakllarni bir vaqtning o'zida chizish


lozim, ikkinchidan - har bir juft va simmetrik shakllar chetidan boshqasiga qarata parallel chiziqlar tortish kerak. Masalan, ko'z qorachig'i (olmasi)ning yuqori cheti o'ng va chapdan bitta chiziqda turishi kerak, bunda bitta ko'z qovog'ining kengligi va qalinligi belgilab olinib, darhol ikkinchisiga o'tilishi lozim.

Ko'zlarning sharsimon shaklini ocha borib, ko'z qovoqlarini darhol aniq chizmang, faqat ulaming kengligi, qalinligi va har bir qovoqning yo'nalishini belgilab oling. Sizga yaqinroq turgan ko'zning yuqori qovoq qoqilishi ko'z yoshi qopchig'iga, uzoqroqdagi ko'zniki esa ko'z burchagiga yaqinroq bo'ladi. Qovoqning pastrog'ini esa, hatto, belgilamasa ham bo'ladi.




27-rasm. *Inson boshning o'ng va chap hamda yondan ko'rinish o'lchamlari.*

Masalan: profil chizig'i ikkita teng va simmetrik qismlarga ajratadigan boshning old qismini aniqlay borib, bir yonoq chetidan profil chizig'igacha va profil chizig'idan ikkinchi yonoqqacha bo'lgan masofani qalam bilan o'lchash mumkin emas; chunki Profil chizig'iga nisbatan yuzning chap qismi kichikroq, o'ng qismi esa kattaroq bo'ladi. Bosh shaklini tasvirlashning dastlabki bosqichlarida yordamchi chiziqlardan foydalanish usullari 26, 27-rasmlarda ko'rsatilgan.



1- bosqich.




2- bosqich.

28-rasm. *Odam boshining 1-2- bosqichlarda ko`rinishi.*

1-bosqich. Boshning umumiy shakli qog`oz yuzasiga chizilishi.

2-bosqich. Bu bosqichda bosh asosiy shakllarining umumiy shakli tuzilishi



3- bosqich.



4- bosqich.

29-rasm. *Odam boshining 3-4- bosqichlarda ko`rinishi.*

3-bosqich. Bu bosqichga kelib sochni chizishga ham alohida ahamiyat beriladi.

4-bosqich. Bu bosqichga yuzdagi har bir a'zoga alohida e'tibor berishga harakat qilinadi.

VI- Dekorativ rasm chizish (naqqoshlik)

Xalq amaliy san'atidagi bezak elementlari tabiatdagi o`simlik dunyosi, gul, novda, barg va hayvonlar tasvirining sodda ko`rinishidagi aksidir. Har bir naqsh namunasi o`ziga xos naqsh elementlari yig`indisidan iborat. O`simlik va hayvonot dunyosidan olingan turli xil shakllar, masalan, novda, barg, gullar, mevalar va shu kabilarning tabiiy shakllarini qayta ishlanishi **stilizatsiya** deyiladi.

Naqshlar sxema va elementlar asosida hosil qilinadi.


Naqshlar ko`rinishiga qarab bir necha xil bo`ladi. Yo`lsimon, to`rtburchak ichida, kvadrat ichida, aylana ichida, uchburchak, ko`bburchak ko`rinishlarda bo`ladi.

Naqshlar ham chizish bosqichlari asosida yordamchi chiziqlar orqali amalga oshiriladi.


Naqqoshlik san'ati «tilini» bilish uchun naqshning har bir elementini va ranglarni ramziy alifbosini bilmoq kerak.




30-rasm. Naqsh elementlari: 1 – barg; 2 – bodom; 3 – uchbarg; 4 – bargli gul; 5 – shobarg; 6 – shohbarg; 7 – yulduzcha gul; 8 – bargli gul; 9 – ko`p bargli gul; 10 – paxta gul; 11 – 4-5-6 qanotli oygul; 12 – bargli oygul; 13 – gajak; 14 – jingalak; 15 – kuvacha gul; 16 – maarg`o`la; 17 – yo`l; 18 – maarg`o`lali yo`l; 19 – bofta; 20 - qo`shband; 21 – shkiftalar va boshqalar.




31-rasm. *Islimi naqsh elementining 1-bosqichi.*




32-rasm. *Islimi naqsh elementining 2-bosqichi.*




33-rasm. *Islimi naqsh elementining 3-bosqichi.*




34-rasm. *Islimi naqsh elementining 4-bosqichi.*




35-rasm. *Doirasimon naqsh elementining 1-bosqichi.*




36-rasm. *Doirasimon naqsh elementining 2-bosqichi.*




37-rasm. *Doirasimon naqsh elementining 3-bosqichi.*



38-rasm. *Islimi naqsh elementining 1-bosqichi.*



39-rasm. *Islimi naqsh elementining 2-bosqichi.*



40-rasm. *Islimi naqsh elementining 3-bosqichi.*

Har bir bayram, tadbirlarga taklif, tabrik xatlari eskizlarini chizish.

Tasviriy san'atning barcha turlari kabi badiiy bezash ishlari ham kompozitsiyaning umumiy qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bu ishlar bezakchi rassomdan yetarlicha bilim va malakalarni talab dilishi bilan birga, doimo kompozitsiya masalalarini diqqat markazida tutishni taqazo diladi.

Badiiy bezash ishlarida kompozitsiyaning asosan uchta: tekis, hajmli, kenglik va chuqurlikka ega bo'lgan turlari mavjud. Bo'larning barchasi u yoki bu g'oyani amalga oshirishda qandaydir bir umumiy sifat va belgilarga ega bo'ladi.

Frontal kompozitsiya – bu ikkita koordinatalar bo'yicha frontal tasvirni tashkil etish demakdir. Frontal kompozitsiyaning xarakterli xususiyati unda hajmli elementlarni ishlatishning cheklanishi va shu bilan bir paytda, uning o'lchovlarini kattalashtirish imkoniyatlari ortib borishidir. Shuning uchun ayrim relefsimon tasvirlar (masalan: kandakorlik, yog'och hamda ganch o'ymakorligi va hakoza) plastika qonuniyatlari asosida qurilsa ham, tekis yuza kompozitsiyalar turiga kiradi. Ta'lim-tarbiya muassasalaridagi bezak ishlarining ko'p qismi, masalan, ko'rgazmali qurollar, devoriy gazetalar, tematik stendlar, taklifnoma, tabriknoma, tematik albom va hokozolar frontal kompozitsiya asosida bajariladi. Kompozitsiyaning qurilishi ma'lum ob'ektning vazifasi hamda mazmuniga, undan ko'zlangan maqsadga bog'liq bo'ladi. Kompozitsiyalarning asosiy tuzilmalari quyidagilardan iborat: **Gorizontal kompozitsiya** – bunda kompozitsiya elementlari gorizontal yuzaga joylashtiriladi. Masalan: dala, shahar panoramasi va boshqalar. **Vertikal kompozitsiya** - aktiv, dinamik kompozitsiya bo'lib, yuqoriga o'sish, parvoz tasavvurini hosil qiladi, uning detallari asosan tik chiziq bo'yicha joylashadi. **Diagonal kompozitsiya** – uning qurilishi dinamik va shiddatli sxemalarga asoslanadi. **Uchburchak yoki pyramidal kompozitsiya** – bunda turg'un, osoyishta holatga tayaniladi. Surat yuzasining pastki qismi piramidaning negizi hisoblanadi. Badiiy bezash san'atidagi frontal kompozitsiyalarning muhim xususiyatlaridan biri ularning yupqa yuza tarzida ijro etilishidir. Frontal kompozitsiya boshqa tur kompozitsiyalardan hajmni, masofa va kenglikni berishi bilan farqlanadi. Hajmli kompozitsiya turli ko'rish nuqtalaridan idrok dilishga mo'ljallangan uch o'lchovli shaklda bo'ladi. Asarlarning mazmuni va vazifasiga muvofiq kompozitsiyaning biror xususiyati bo'rttirilishi mumkin. Kompozitsiya o'z xususiyatlari bilan pirovard natijada badiiy bezash ishlarining yuksak badiiyligini ta'minlashga asos bo'lib xizmat qiladi. Kompozitsiyalarning garmonik yaxlitligida ranglar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa rang asosiy o'rin tutadigan mozaik panno, vitrajlarda kompozitsion garmoniyaga jiddiy qarash lozim. Shundagina asarning rang birligi estetik ta'sir etuvchi eng asosiy omillardan biri bo'ladi. Kompozit-

siya qonuniyatlaridan asossiz chetlashish odatda, badiiy bezash ishlari mazmunini ham, estetik mohiyatini ham pasaytiradi. Agar kompozitsiya elementlari tomonlarda bir-biriga nisbatan bir xil joylashsa, ular kompozitsion muvozanatda bo'ladi. Dinamik va turg'un kompozitsiyalar ham o'z qonuniyatlariga ega. Bular o'rtasida qarama-qarshi ma'no kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik, ya'ni asosiy va ikkinchi darajali elementlarning mantiqiy uyg'unligiga erishish lozim. Ritm qonuniyatlarini bilish, ta'sirchan kompozitsiya tuzishda ritmik ko'rinishning xarakterini to'g'ri tanlashga katta yordam beradi.



41-rasm. *Yubeley uchun tabriknoma.*

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'at turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O'zbek diyorida vujudga kelib gullab yashnagan san'at turlari bemsil va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, o'zbek amaliy bezak san'ati turlarining shoh ildizlari insoniyatning bolaligi, ya'ni ibtidoiy jamiyatga borib taqalishining guvohi bo'lamiz.

O'lkamiz zaminidagi qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berish usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan va asrlar osha hozirgacha davom etib kelmoqda.

Taklifnoma. O'tkaziladigan kechalar, ertaliklar, ko'rgazmalarning ochilishi, ularning muhokamasi kabi madaniy tadbirlarni amalga oshirishda taklifnomalarning ma'lum hissasi bor. Taklifnoma ko'p nusxada tayyorlanadi. Shuning uchun u sodda, tushunarli va ixcham bo'lishi zarur.

Taklifnoma uchun tanlanadigan qog'oz bo'yi va enining o'lchami 1:2 nisbatda bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Buklangan qog'ozning tashqi tomoniga «Taklifnoma» so'zi yoziladi. Yozuvlardan tashqari turli tasvirlar ham ishlash mumkin. Bular taklif qilinayotgan shaxsga shu sana yoki voqeaning mazmunidan darak beradi.

Taklifnomaning ichki qismida taklif qilinayotgan tashkilot yoki shaxsning nomi, uning nima uchun taklif qilinayotganligi, tadbirning qachon va qayerda o'tkazilishi va uni kim tashkil etayotgani ko'rsatiladi, shuningdek, tadbirning kun tartibi ham yoziladi.



42-rasm. *Bayram uchun tabriknoma*

VII- Qush, hayvon, meva va sabzavotlar haykallarini ishlash

Hayvonlar va odamlar bilan bog‘liq bo‘lgan mavzularda rasm chizdirilayotganda o‘quvchilarga o‘yinchoqlar va haykalchalar ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. Bu hayvon yoki odamning xarakterli belgilariga bolalar diqqatini jalb qilish, uni turli nuqtai-nazardan ko‘z o‘ngiga keltira olish imkonini beradi. Mavzu yuzasidan ekskursiya tashkil etilishi lozim. Bunda bolalarning asosiy e‘tibori faqat kuzatilayotgan narsalarning tuzilishi, tabiatda joylashuvigagina emas, balki tabiatning o‘ziga xos go‘zalligiga, ranglarning turli-tumanligiga qaratilishi bilan ularda estetik idrok etish, malakalari tarbiyalab borilishi kerak.

Ekskursiyada quruq kuzatish bilan chegaralanish yaramaydi. Uni suhbat vositasida amalga oshirish va bu suhbatda bolalar faol ishtirok etishlari lozim. Bu ular tafakkurining o‘shishiga, xotira va tasavvurlarining rivojlanishiga va mustahkamlanishiga yordam beradi.

O‘qituvchi bolalar ishini o‘z vaqtida nazorat qilib turmasa, ko‘pchilik bolalar chala ishlarini ham bo‘yab qo‘yadilar. Muvaffaqiyatsiz chiqqan rasm bolaning tasviriy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini pasaytiradi. Shunday ish bir necha bor qaytarilsa, o‘quvchining chizishga bo‘lgan qiziqishi susayadi. Ana shunday muvaffaqiyatsizliklarni kamaytirish maqsadida o‘qituvchining ruxsatisiz bolaning rasmni bo‘yashi qat’iy taqiqlanishi lozim. Darsning oxirida muvaffaqiyatsiz ishlangan ishlardan bir nechtasini tanlab olib, bolalar ishtirokida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Tahlilda rasm kompozitsiyasi, rangi, tasvirning ishonarli yoki ishonarsiz ekanligi, obrazlar va narsalarning o‘zaro bog‘liqligi hamda boshqalar haqida fikr yuritiladi. Shunday qilingan taqdirdagina bolalar to‘g‘ri va noto‘g‘ri ishlangan ishlar haqida to‘liq tushunchaga ega bo‘ladilar.

Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida loy hamda plastilindan turli haykalchalar yasash o‘quvchilar qo‘l muskullarining rivojlanishida, predmetlarning hajmdorlik xususiyatlarini qo‘l bilan sezish va barmoqlar harakatini tartibga solishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quvchilar loy yoki plastilindan qo‘lda, stek yordaraida turli narsalar yasashni o‘rganadilar. Mazkur mashg‘ulot turida quyidagi narsalar mavjud


bo'lishi lozim: har bir o'quvchiga yetadigan miqdorda loy yoki plastilin, 25x25 sm o'lchamdagi fanera taglik, latta, suvli idish, turli shakldagi stek va shu kabilar.




43-rasm. *Turli xil daraxt shox-shabadalaridan hayvon va buyumlar shakllari yasash.*

Haykaltaroshlik mashg'ulotlarida qo'llaniladigan materiallarning o'ziga xos xarakterli xususiyatlari bilan o'quvchilarning yaqindan tanish bo'lishlari dastur mazmunining puxta o'zlashtirilishi omillaridandir.

Plastilinning asosiy kamchiligi shundaki, undan ishlangan buyumlarni issiq joylarda saqlash (ochiq joylarda ham) mumkin emas. Chunki bunday joylarda ular erib ketishi mumkin. Plastilin yuqi qo'lni yuvganda yaxshi ketmaydi. Loy esa bunday kamchiliklardan xoli bo'lib, undan yasalgan buyumlarni yaxshi qurilgach, mufel pechida qayta kuydirish hamda ustidan guash bo'yog'ida ishlov berish mumkin.





44-rasm. *Loydan plastilindan meva-sabzavotlar shakllarini yasash.*

Loy tayyorlashda tabiatda uchraydigan soz tuproqdan foydalaniladi. Soz tuproqdan odatda kulolchilik buyumlari tayyorlanadi, uy devorlarini pardozlashda ham undan foydalaniladi. Ana shu tuproqni har xil aralashmalardan tozalab, ozgina ishlov berish orqali, loy holida tasviriyl faoliyat mashg'ulotlarida ishlatish mumkin. Buning uchun tuproq tarkibidagi kesaklar yaxshilab maydalanadi va yirik ko'zli elakdan o'tkaziladi. Elangan tuproq plastmassa yoki sirli chelakka bir qavat solinadi va ustidan tuproqni ko'madigan qilib suv quyiladi. Mazkur ish to idish to'lguncha shu tarzda davom ettiriladi. Chelakdagi aralashma shu holicha 1 sutka qoldiriladi. So'ng ortiqcha suv to'kib tashlanadi va loy qo'l bilan yaxshilab aralashtiriladi. Loyning pishiqligini oshirish uchun maydalab yirtilgan gazeta parchalari, ozgina yog' aralashtirish tavsiya etiladi. Hosil bo'lgan loyga iylab ishlov berish, u qo'lga yuqmaydigan bo'lguncha davom ettiriladi. Tayyor bo'lgan loy qotib qolmasligi uchun polietilen paketga solib qo'yiladi. Loyning yumshoqlik xususiyati o'quvchilarga istagan shakllarini osonlik bilan ishlashlariga imkon beradi. Loy vaqt o'tishi bilan qotib qolmasligi uchun har zamonda ozgina-ozgina suv sepib qo'yiladi.

Loydan haykalchalar yasash ishlari doimo ni axsus taglik ustida amalga oshirilishi kerak. Bu, o'z navbatida, ish joyining toza bo'lishini ta'minlaydi va ish tugamay qolganda ustini bekitib, chetga olib qo'yish oson bo'ladi. Taglik yasashda 25x25 o'lchamdagi fanera tanlab olinadi va sirti yaxshilab jilvir (najdak) qog'ozda ishqalanib, tekislanadi. So'ng latta bilan artib tozalanadi. Ustidan mebellarning sirtiga surtiladigan lok yoki alif moyida bo'yab chiqiladi.

Haykaltaroshlikda mayda va nozik detallar yog‘och yoki plastmassa pichoqlar (steklar)da ishlanadi. Ularning shakllari turlicha bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha loydan puflab chalinadigan hushtak, har xil o‘yinchoqlar ishlanadi.

Haykaltaroshlik mashg‘ulotlarida plastilin ham keng miqyosda qo‘llaniladi. Lekin u bilan ishlashda ayrim qonun-qoidalariga rioya qilishga to‘g‘ri keladi. Plastilin sovuq bo‘lganda ancha qattiqlashib qoladi. Ish boshlashdan oldin esa uni bir oz yumshatish kerak bo‘ladi. Buning uchun plastilin solingan quticha mashg‘ulot boshlanishidan oldinroq issiqlik manbaiga yaqinroq joyga qo‘yiladi yoki salgina namlangan qo‘lning kaftida tutib turiladi. Natijada plastilin yumshab, ishga tayyor bo‘ladi. Plastilinni qo‘lda uzoq vaqt tutib turish yaramaydi. Chunki plastilin haddan tasnqari yumshab, yopishqoq bo‘lib qoladi.

Plastilindan haykalchalar yasashda ham yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan jihozlar kerak bo‘ladi. Loy yoki plastilindan haykalchalar yasash o‘quvchilardan ishlov berishning turli xil usullari bilan tanish bo‘lishni taqozo etadu

Dumaloqlash ma‘lum bir shaklga ega bo‘lmagan plastik massaga ishlov berishning eng oddiy usullaridan biridir (44-45-rasmlar). Bunda qo‘lning kaftlari bir-biriga parallel tutiladi va orasiga loy yoki plastilin bo‘lagi qo‘yiladi. Qo‘l kaftlarining parallelligi o‘zgartirilmagan holda bir tekisda aylantirilsa shar-simon shakl hosil qilinadi. Dumaloq koptokchadan non, qo‘ziqorin qalpoqchasi, tarelka, olma, choynak, piyola kabi narsalarni yasash mumkin. Tuxumsimon narsalarning shaklini yasashda oldindan tayyorlangan dumaloq koplokra qo‘lning kaftlari orasiga qo‘yiladi va bir tomonga nisbatan qiyalangan holda oldinga-orqaga harakatlantiriladi. Natijada koptokchaning bir tomoni cho‘zilib, tuxumsimon shakl hosil bo‘ladi. Bu xildagi ishlov berishlar odatda buyumlar tasvirini yaxlit bo‘laklardan yasashda qo‘llaniladi. Narsalarning mayda detallarini, ayrim qismlarini shibbalash, ortiqcha qismlarini uzib olish, siqimlab cho‘zish orqali kerakli ko‘rinish beriladi. Bunda predmet yoki narsalarning notekis sirtlari ustidan namlangan barmoq yoki pichoqlarning tekis tomoni yurgizib chiqiladi. Narsalarning bir-biriga birikkan joylari yaxshilab silliqylanishi lozim. Loydan ishlangan narsalarni ho‘llangan latta bilan silliqlash osondir.

Haykaltaroshlikda butun va alohida loy bo‘laklaridan narsalar yasash usullaridan foydalaniladi. Non, tarelka, bodring, sabzi va shu kabilar butun bo‘laklardan ishlanadi. Lekin murakkabroq tuzilishdagi predmetlarni, narsalarni alohida bo‘laklardan ishlagan ma’qul. Bunda barcha ish «konstruksiyalash»




45-rasm. *Loydan plastilindan meva-sabzavotlar shakllarini yasash.*

usulida bajariladi, ya’ni har bir qism alohida ishlab bo‘linganidan so‘ng o‘z joylariga o‘rnatib chiqiladi. O‘zaro birikkan joylar esa yaxshilab silliqlab, tekislanadi.

Idrok etish – tasviriy san’at mashg‘ulotlarining bir turi bo‘lib, u ikkita mustaqil qism – borliqni va san’atni idrok etish qismidan tashkil topadi.


Echki va Xo`roz o'yinchog'ini yasashda uning umumiy tanasi o'ziga xos xarakterli ko'rinishga ega ekanligini unutmaslik lozim. Shuning uchun ham o'qituvchi ko'proq o'quvchilarning diqqatini ana shunga qaratishi lozim bo'ladi. Kattaroq g'o'lacha ko'rinishida yasalgan bo'lakning bir tomoniga «silliqlab cho'zg'ilash» usuli bilan rasmdagicha ishlov beriladi. Echkining bosh qismini hosil qilish uchun bo'yin sifatida qoldirilgan bo'lakning bir uchi pastga qarata egib qo'yiladi. So'ng echkining oyoqlari tanaga biriktirilib, ulangan joyi yaxshilab silliqlanadi. Tana va oyoqlariga kerakli shakl berilganidan so'ng echkining yuz qismi, soqollari ishlanadi, dumi o'rnatiladi. Odatda echkining oyog'i juda ingichka bo'ladi. Uning o'yinchoq haykalini yasashda shartli ravishda oyoqlari yo'g'onroq qilib olinadi.



a) Birinchi bosqich.



b) Ikkinchi bosqich.




c) Uchinchi bosqich.



d) To`rtinchi bosqich.

46-rasm. ***Loydan, plastilindan Echki haykalini yasash.***

O`qituvchi parta oralab yurib, bolalarning ishlariga yordamlashib, kerakli yo`1-yo`riqlar beradi.



a) Birinchi bosqich.




b) Oxirgi bosqich.

47-rasm. ***Rangli plastilindan Xo`roz haykalini yasash.***



a) ***Birinchi bosqich.***




b) Ikkinchi bosqich.




c) Ikkinchi bosqich.

48-rasm. ***Plastilindan Tus tovuq haykalini yasash.***

VIII- Bino va inshootlar maketini tayyorlash




a — yig'ilgan uycha modelining ko'rinishi;
b — chizma shabloni.



49-rasm. **Bir qavatli eng oddiy binoning fasadi va plani.**




a — yig'ilgan uychaning umumiy ko'rinishi;
b — tom uchun shablon;
d — uycha devorlari shabloni bichig'i.




Qog'oz uycha modellari.


50-rasm. **Ikki qavatli eng oddiy binoning fasadi va plani.**



51-rasm. **Bessetka** (Shiyponcha) *fasadi va chizmasi*.



52-rasm. **Minora ning chizmasi va yaqqol tasviri.**



53-rasm. **Ko'p qavatli uyning chizmasi va yaqqol tasviri.**

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Abdirasulov. Tasviriy san`at o`qitish metodikasi. – T.: 2006.
2. Abduraxmonov. Rangtasvir va kompozitsiyadan metodik tavsiyalar. – T.: 1995
3. S.Bo`latov. Xalq amaliy san`ati bezagi. – T.: 1991.
4. R.Hasanov, H.Egamov. Boshlang`ich sinflarda tasviriy san`at darsliklari.